



Xorazm viloyatida
kichik tadbirkorlik

2024- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar



Xorazm viloyatida kichik tadbirkorlik

Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar


2024- yilning 1- oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **24 067** tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **37** taga kamaygan yoki **0,2 %** ga pasaygan. Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1000** aholiga **14,2** birlikni tashkil qildi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar


2024- yilning yanvar-sentabrida **5 691** ta yangi kichik korxonalar va mikrofirma (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **11,7 %** ga ko'p demakdir.

Yuridik shaxs – o'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, suda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.

2020-2024- yillar 1- oktabr holatida faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz), birlikda



2024- yilning 1- oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng yuqori ulushga ega bo'lgan sohalar bo'yicha soni va ulushi



Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar


Hududlar bo'yicha 1- oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda

2023- y.		2024- y.
24 104	Xorazm viloyati	24 067
4 434	Urganch sh.	4 440
1 973	Xiva sh.	1 827
1 686	Bog'ot	1 678
1 644	Gurlan	1 541
1 913	Qo'shko'pir	1 962
2 663	Urganch	2 668
1 435	Hazorasp	1 468
623	Tuproqqal'a	621
1 833	Xonqa	1 878
1 682	Xiva	1 654
1 603	Shovot	1 611
1 497	Yangiariq.	1 633
1 118	Yangibozor	1 086

2024- yil 1- oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni jami **24 067** tani, shundan yangi tashkil etilganlari **5 691** tani tashkil etdi.

2024- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'pi Urganch shahrida **4 440** tani yoki jamiga nisbatan **18,4 %** ni tashkil etdi.

1- oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda





Kichik tadbirkorlik subyektlarining har 1000 aholiga nisbati

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda*

Urganch sh.	28,8
Xiva sh.	18,4
Bog'ot	11,5
Gurlan	12,5
Qo'shko'pir	12,9
Urganch	14,1
Hazorasp	8,9
Tuproqqal'a	14,8
Xonqa	11,9
Xiva	12,8
Shovot	12,0
Yangiariq	15,8
Yangibozor	16,7

Xorazm viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati 1- oktabr holatiga, birlikda



2024- yil 1- oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni har **1000** aholiga nisbatan **14,2** birlikni tashkil etib, bu ko'rsatkich 2023- yilga nisbatan **0,3** birlikka kamaygan.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har **1000** aholiga nisbatini eng yuqori ko'rsatkichi Urganch shahrida **28,8** birlik, Xiva shahrida **18,4** birlik, Yangibozor tumanida **16,7** birlik, Yangiariq tumanida **15,8** birlik, Tuproqqal'a tumanida **14,3** birlikka yetdi.


* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Xorazm viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda

Eng yuqori ko'rsatkich

Urganch shahri
– 28,8 birlik




O'rta ko'rsatkich

Qo'shko'pir tumani
– 12,9 birlik



Eng past ko'rsatkich

Hazorasp tumani
– 8,9 birlik



Kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati tuman va shaharlar kesimida tahlil qilinganda, eng yuqori ko'rsatkich Urganch shahrida **28,8** birlik, Xiva shahrida **18,4** birlik, Yangibozor tumanida **16,7** birlik, Yangiariq tumanida **15,8** birlik, Tuproqqal'a tumanida **14,8** birlik, Urganch tumanida **14,1** birlik, Qo'shko'pir tumanida **12,9** birlik, Xiva tumanida **12,8** birlik, Gurlan tumanida **12,5** birlik kuzatildi.

Tadbirkorlik faoliyati (kichik tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

2024- yil 1- oktabr holatiga har 1000 aholiga to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlari ko'p tashkil etilgan shahar va tumanlar, birlikda

Urganch shahri

28,8

Yangibozor tumani

16,7

Tuproqqal'a tumani

14,8

Xiva shahri

18,4

Yangiariq tumani

15,8

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar


Yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda

2023- y.

2024- y.

642	Urganch sh.	695
309	Xiva sh.	316
447	Bog'ot	474
412	Gurlan	451
474	Qo'shko'pir	436
491	Urganch	552
380	Hazorasp	460
133	Tuproqqal'a	152
300	Xonqa	348
325	Xiva	395
526	Shovot	537
378	Yangiariq	571
279	Yangibozor	304


2024- yilning yanvar-sentabrida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, % da



2024- yilning yanvar-sentabrida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Urganch shahri – **12,2** %, Yangiariq tumani – **10,0** %, Urganch tumani – **9,7** %, Shovot tumani – **9,4** %, Bog'ot tumani – **8,3** %, Hazorasp Gurlan tumani – **8,1** %, Gurlan tumani – **7,9** % hissalariga to'g'ri keldi.


Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

2023-2024- yillarning yanvar-sentabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda



■ 2024- y. ■ 2023 y.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda





■ 2024- y. ■ 2023- y.

2024- yilning yanvar-sentabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdo sohasida **1 729** ta, sanoatda **1 338** ta hamda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida **1 194** ta yangidan tashkil etilgan.

Viloyatning tumanlari va shaharlari kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar Urganch shahrida **695** ta, Yangiariq tumanida **571** ta hamda Urganch **552** ta va Shovot tumanida **537** ta yangidan tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida 2020-2024- yillarning yanvar-sentabr oylari davomida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlik




So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlarini qo'llab - quvvatlash hamda ishbilarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilash bo'yicha qabul qilingan qaror va farmonlari, shuningdek, bu sohaga berayotgan katta e'tiborlari natijasida, 2020-2024- yillarning yanvar-sentabr oylari davomida jami **22 395** ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangidan tashkil etildi. Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar sohalar kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p yangi subyektlar savdo sohasida – **7 760** ta (yoki **34,7 %**), xizmatlar sohasida – **4 964** ta (yoki **22,2 %**), sanoat sohasida – **4 799** ta (yoki **21,4 %**), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **3 926** ta (yoki **17,5 %**) va qurilish sohasida – **946** tani (yoki **4,2 %**) tashkil etgan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari, % da



■ 2023- y. ■ 2024- y.




■ 2023- y. ■ 2024- y.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHM dagi ulushi dinamikasi (yanvar-sentabr oylarida), % da

2024- yilning yanvar-sentabrida YAHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **72,0** % ni tashkil qilib, 2023-yilning tegishli davriga nisbatan **0,2** pasaygan.




2024- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo'lgan tarmoqlari, % da




2024- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlikning eng yuqori ulushlari qishloq xo'jaligida **98,8** % ni, yo'lovchi aylanmasida **96,0** % ni, chakana savdoda **96,3** % ni, yuk tashishda **93,5** % ni yo'lovchi tashishda **94,5** % ni, qurilishda **89,5** % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari (yanvar-sentabr oylarida)


Kichik tadbirkorlik subyektlarida sanoat faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarida qurilish faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarida investitsiya faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari (yanvar-sentabr oylarida)


Kichik tadbirkorlik subyektlarida qishloq xo'jaligi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatishdagi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati


2024- yilning yanvar-sentabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, mlrd so'm

Urganch sh.	1021,1
Urganch	560,0
Xonqa	362,9
Qo'shko'pir	255,6
Tuproqqal'a	206,7
Yangibozor	191,1
Gurlan	185,9
Shovot	183,4
Xiva sh.	174,3
Bog'ot	171,7
Hazorasp	127,4
Xiva	121,6
Yangiariq	113,5

2024- yilning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **4 698,8** milliard so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Urganch shahri (**1 021,1** mlrd so'm), Urganch (**560,0** mlrd so'm), Xonqa (**362,9** mlrd so'm), Qo'shko'pir (**255,6** mlrd so'm) va Tuproqqal'a (**206,7** mlrd so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi. Yangiariq tumanida (**113,5** mlrd so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.


Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmida eng yuqori ulushga ega hududlar, % da



Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati


2019-2024- yillarning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi dinamikasi, mlrd. so'm

2024- yil yanvar-sentabrda sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **21,6 %** ni tashkil etdi.



2024- yilning yanvar-sentabrda hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Urganch tumani (**59,7 %**), Xiva sh. (**56,3 %**), Qo'shko'pir tumani (**53,8 %**), Xonqa tumani (**45,9 %**), Gurlan tumani (**37,4 %**), Bog'ot tumani (**35,9 %**), Urganch sh. (**34,7 %**), Xiva tumani (**32,1 %**), Yangibozor tumani (**31,5 %**) va Hazorasp tumani (**28,2 %**) ni tashkil etdi.



Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish faoliyati

2019-2024- yillarning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi hajmi va ulushi dinamikasi



2024- yilning yanvar-sentabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi va ulushi

Urganch sh.	608,0	64,4
Xiva sh.	351,5	96,7
Bog'ot	185,5	79,4
Gurlan	244,9	96,9
Qo'shko'pir	283,3	97,7
Urganch	640,5	95,4
Hazorasp	349,4	96,4
Tuproqqal'a	129,4	82,2
Xonqa	330,9	82,2
Xiva	428,2	83,3
Shovot	242,0	97,4
Yangiariq	226,7	96,6
Yangibozor	222,0	93,7


hajmi, mlrd. so'mda ————— ↑
 ulushi, % da ————— ↑

2024- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **6 353,6** milliard so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **89,5** % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2023- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **71,1** % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Urganch (**640,5** mlrd so'm), Urganch shahri (**608,0** mlrd so'm), Xiva (**428,2** mlrd so'm), Xiva shahrida (**351,5** mlrd so'm), Hazorasp shahrida (**349,4** mlrd so'm), Xonqa (**330,9** mlrd so'm) Qo'shko'pir (**283,3** mlrd so'm) hamda Gurlan (**244,9** mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya faoliyati

2019-2024- yillarning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlari investitsiya hajmining o'zgarish dinamikasi, mlrd. so'mda




2024- yilning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi **4 547,1** milliard so'mni yoki jami investitsiya hajmining **51,3 %** ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2023- yilning mos davriga nisbatan **142,9 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari hajmi Urganch shahri (**975,0** mlrd.so'm), Xiva shahri (**654,7** mlrd so'm), Hazorasp (**461,1** mlrd so'm), Urganch (**458,2** mlrd so'm), Yangiariq (**364,3** mlrd so'm), Xonqa (**309,1** mlrd so'm), Tuproqqal'a (**271,0** mlrd so'm) hamda Shovot (**262,0** mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

2019-2024- yillarning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiyadagi ulushi dinamikasi, % da



2024- yilning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmi va ulushi




■ hajmi, mlrd. so'm ■ ulushi, %

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo‘jaligi faoliyati

2024- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi **21 361,2** mlrd so‘mni yoki jami qishloq xo‘jaligi mahsuloti hajmining **98,8** % ini tashkil etdi. O‘shish sur‘ati 2023- yilning tegishli davriga nisbatan **104,6** % ni tashkil qildi.

2019-2024- yillarning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlari qishloq xo‘jaligi hajmining o‘zgarish dinamikasi, mlrd. so‘mda




2024- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi va ulushi

Urganch sh.	421,9	88,4
Xiva sh.	61,4	99,9
Bog‘ot	2199,7	97,6
Gurlan	1984,2	99,9
Qo‘shko‘pir	2243,4	99,4
Urganch	2582,8	99,7
Hazorasp	2079,5	99,8
Tuproqqal‘a	549,0	99,9
Xonqa	2170,3	98,7
Xiva	1756,3	99,7
Shovot	1721,7	100,0
Yangiariq	1776,5	96,3
Yangibozor	1814,3	99,2

hajmi, mlrd so‘mda
 ulushi, % da


2019-2024- yillarning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo‘jaligidagi ulushi dinamikasi, % da



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi Urganch (**2582,8** mlrd so‘m), Qo‘shko‘pir (**2243,4** mlrd so‘m), Bog‘ot (**2199,7** mlrd so‘m), Xonqa (**2170,3** mlrd so‘m), Hazorasp (**2079,5** mlrd so‘m) hamda Gurlan (**1984,2** mlrd so‘m) tumanlarida qayd etildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo faoliyati

2019-2024- yillarning yanvar-sentabrda oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmi va ulushi dinamikasi




2024- yilning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **9 786,6** mlrd so'mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **96,3 %** ini tashkil etib, o'sish sur'ati 2023- yilning tegishli davriga nisbatan **111,0 %** ni tashkil qildi.

2024- yil yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida chakana savdo tovar aylanmasi va ulushi

Urganch sh.	2371,2	91,7
Xiva sh.	447,5	96,4
Bog'ot	569,2	97,9
Gurlan	799,7	99,5
Qo'shko'pir	484,2	99,5
Urganch	1229,0	99,0
Hazorasp	977,3	96,8
Tuproqqal'a	231,1	99,8
Xonqa	624,1	99,4
Xiva	332,5	94,0
Shovot	701,2	97,4
Yangiariq	440,8	99,6
Yangibozor	268,7	95,6

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Urganch shahri (**2 371,2** mlrd so'm), Urganch (**1 229,0** mlrd so'm), Hazorasp (**977,3** mlrd so'm), Gurlan (**799,7** mlrd so'm), Shovot (**701,2** mlrd so'm), Xonqa (**624,1** mlrd so'm) va Bog'ot (**569,2** mlrd so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

2019 va 2024- yillarning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmining o'zgarishi, mlrd so'm




hajmi, mlrd so'mda

ulushi, % da

Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatish faoliyati

2019-2024- yillarning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining ko'rsatilgan xizmatlar hajmidagi ulushi dinamikasi, % da



2024- yilning yanvar-sentabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida xizmat ko'rsatish hajmi, mlrd so'mda

Urganch sh.	1 559,8
Urganch	635,9
Xonqa	547,6
Hazorasp	462,6
Bog'ot	456,2
Gurlan	449,2
Qo'shko'pir	447,1
Xiva	421,4
Shovot	386,5
Yangiariq	382,6
Xiva sh.	380,0
Yangibozor	332,2
Tuproqqal'a	184,8


2024- yil yanvar- iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **13 691,2** mlrd so'mlik xizmatlar ko'rsatildi yoki ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **71,4 %** ini tashkil qildi va o'sish sur'ati 2023- yilning tegishli davriga nisbatan **114,8 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p xizmatlar hajmi Urganch shahri (**1 559,8** mlrd so'm), Urganch (**635,9** mlrd so'm), Xonqa (**547,6** mlrd so'm), Hazorasp (**462,6** mlrd so'm), Bog'ot (**456,2** mlrd so'm), Gurlan (**449,2** mlrd so'm) va Qo'shko'pir (**447,1** mlrd so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyati (yanvar-sentabr oylarida)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

Hajmi, mln AQSH dollari



Ulushi, % da




Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

Hajmi, mln AQSH dollari



Ulushi, % da



Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

2019-2024- yillarning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmidagi ulushi dinamikasi, % da



2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y. 2024- y.

2024- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining hajmi va ulushi

Urganch sh.	7933,6	27,6
Xiva sh.	13248,4	82,2
Bog'ot	13056,6	81,5
Gurlan	21907,9	77,1
Qo'shko'pir	14062,3	98,0
Urganch	17643,5	83,8
Hazorasp	10454,8	100,0
Tuproqqal'a	112,0	0,7
Xonqa	25243,0	76,6
Xiva	13001,2	64,9
Shovot	3528,3	10,5
Yangiariq	6151,5	67,9
Yangibozor	27602,9	96,1

hajmi, ming AQSH dollar


ulushi, % da

2024- yilning yanvar-sentabrida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi **178 493,0** ming AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining **63,6** % ini tashkil etdi.

2024- yilning yanvar-sentabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Hazorasp tumanida – **100,0** %, Qo'shko'pir tumanida – **98,0** %, Yangibozor tumanida – **96,1** %, Urganch tumanida – **83,8** %, Xiva sh. – **82,2** %, Bog'ot tumanida – **81,5** %, Gurlan tumanida – **77,1** % va Xonqa tumanida – **76,6** % ni tashkil qildi. Eng past ko'rsatkich Tupraqal'a tumanida – **0,7** % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

2019-2024- yillarning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi hajmidagi ulushi dinamikasi, % da




2024- yilning yanvar-sentabrda kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **161 023,3** ming AQSH dollarini yoki jami importning **47,8** % ini tashkil etdi.

2024- yilning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da

2024- yilning yanvar-sentabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Hazorasp tumanida – **100,0** %, Urganch tumanida – **92,4** %, Xonqa tumanida – **90,6** %, Bog'ot tumanida – **87,3** %, Xiva sh. – **85,8** %, Urganch sh. – **82,0** %, hamda Yangibozor tumanida – **81,7** % ni tashkil etdi.

Urganch sh.	82,0
Xiva sh.	85,8
Bog'ot	87,3
Gurlan.	63,3
Qo'shkipir	21,1
Urganch	92,4
Hazorasp	100,0
Tupraqqal'a.	2,6
Xonqa	90,6
Xiva	59,5
Shovot	38,7
Yangiariq	62,2
Yangibozor	81,7


Kichik tadbirkorlik subyektlarining transport faoliyati



93,5 %

Yuk
tashishda


2024- yilning yanvar-sentabrida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **93,5 %** ni tashkil etdi. 2023- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **102,7 %** ni tashkil qildi.



82,9 %

Yuk
aylanmasida


2024- yilning yanvar-sentabrida avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **82,9 %** ni tashkil etgan bo'lib, 2023- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **102,0 %** ni tashkil qildi.



94,5 %

Yo'lovchi
tashishda

2024- yilning yanvar-sentabrida avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **94,5 %** ni tashkil etib, 2023- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **103,9 %** ni tashkil qildi.




96,0 %

Yo'lovchi
aylanmasida

2024- yilning yanvar-sentabrida avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **96,0 %** ni tashkil etib, 2023- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **102,0 %** ni tashkil qildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yil III chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, birlikda




2024- yil III chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxonalar va mikrofirmalar o'rtasida tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi.

Ushbu so'rovnoma 1 061 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning 327 (30,8 %) tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. 693 ta (65,3 %) subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan 41 ta (3,9 %) subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) savdoda – 44,4 % (471 ta), xizmatlar sohasida – 28,6 % (304 ta), sanoatda – 13,1 % (139 ta), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 7,8 % (83 ta), qurilishda – 6,1 % (64 ta)ni tashkil etdi.

2024- yil III chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, % da



Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yil III chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi

245	Urganch sh.	23,1
78	Xiva sh.	7,4
79	Bog'ot	7,4
61	Gurlan	5,7
49	Qo'shko'pir	4,6
121	Urganch	11,4
73	Hazorasp	6,9
28	Tuproqqal'a	2,6
78	Xonqa	7,4
55	Xiva	5,2
65	Shovot	6,1
76	Yangiariq	7,2
53	Yangibozor	5,0


Birlik

Ulushi, foizda

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Urganch shahri (**245** ta), Urganch (**121** ta), Bog'ot (**79** ta) va Xonqa (78 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2024- yillarning III choragi uchun umumiy iqtisodiy holatini baholanishi dinamikasi (joriy davrga nisbatan), birlikda




Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalarining soni 2019- yilning III choragida **174** tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning III choragiga kelib esa **327** taga yetgan yoki 2019- yilning III choragiga nisbatan **153** taga oshgan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarining soni 2019- yilda **553** ta bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning yanvar-sentabrida **693** ta yoki **140** taga oshgan.

O'z nabatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarining ulushi esa 2019- yilda **23** tani tashkil etgan bo'lsa, 2024- yilning yanvar-sentabrida **41** tani tashkil etgan va bu ko'rsatkich 2019- yilga nisbatan **18** taga oshgan.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2024- yillarning III choragida umumiy iqtisodiy holatini baholaganlar soni (o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan), birlik



Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o'tgan yilning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalar soni 2019- yilning III choragida **505** tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning III choragiga kelib esa **337** tani tashkil etib yoki 2019- yilga nisbatan **168** taga kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarishsiz deb baholagan korxonalar soni 2019- yilning III choragida **235** ta bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning III choragida **521** ta yoki **286** taga oshgan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalar soni esa 2019- yilning III choragida **9** tani tashkil etgan bo'lsa, 2024- yilning III choragiga kelib, bu ko'rsatkich **31** tani tashkil etib **22** taga oshgan.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2024- yillarning III choragida umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (korxonaning joriy holati bo'yicha), % da




Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar ulushi 2019- yilning III choragida **23,2** % ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilga kelib esa **30,8** % ga yetgan yoki 2019- yilga nisbatan **7,6** % birlikka oshgan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalar ulushi 2019- yilning III choragida **73,7** % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning III choragida **65,3** % yoki **8,4** % birlikka kamaygan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalar ulushi esa 2019- yilning III choragida **3,1** % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024- yilning III choragiga kelib, bu ko'rsatkich **3,9** % ga yetgan yoki **0,8** % ga oshgan.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2024- yillar III choragida umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (o'tgan yillarning mos davriga nisbatan), % da




Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o'tgan yillarning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalar ulushi 2019- yilning III choragida **67,4** % ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilga kelib esa **37,9** % ga yetgan yoki 2019- yilning III choragida nisbatan **29,5** % birlikka kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarishsiz deb baholagan korxonalar ulushi 2019- yilning III choragida **31,4** % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning yanvar-sentabrida **58,6** % yoki **27,2** % birlikka oshgan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalar ulushi esa 2019- yilning III choragida **1,2** % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024- yilning III choragiga kelib, bu ko'rsatkich **3,5** % yoki **2,3** % birlikka oshgan.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yilning III choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da




Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2024- yilning III choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi qurilishda – **37,5** % ni, sanoatda – **30,9** % ni, savdoda – **30,8** % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi xizmatlar sohasida – **67,1** % ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **66,3** % ni, savdoda – **65,0** % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qurilishda sanoatda – **5,1** % ni, savdoda – **4,2** % ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **3,6** % ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yilning III choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



■ Qishloq o'rmon va baliqchilik xo'jaligi ■ Sanoat ■ Qurilish ■ Savdo ■ Xizmat

2024- yilning III choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **47,3** % ni, xizmatlar sohasida – **38,7** % ni va savdoda – **38,4** % ni tashkil etdi.

Shuningdek, yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi sanoatda – **64,4** % ni, qurilishda – **64,3** % ni, xizmatlar sohasida – **58,9** % ni tashkil etdi.

Yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi sanoatda – **4,8** % ni, savdoda – **4,2** %, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **3,6** % ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yilning III choragida biznesga ishonch muhitini baholash, % da


	O'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	Kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	38,2	55,6	6,2
Band bo'lganlar soni	22,7	74,0	3,3
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	33,3	63,1	3,6
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarzi mablag'lari	25,4	67,1	7,5
Raqobat muhiti	35,9	61,2	2,9

	Yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	41,6	55,6	2,8
Band bo'lganlar soni	24,5	72,9	2,6
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	35,4	62,1	2,5
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarzi mablag'lari	27,8	65,0	7,2
Raqobat muhiti	36,6	61,0	2,4


* Faqat raqobat muhitiga tegishli

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yilning III choragida biznesga ishonch muhitini baholash, o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar, % da



2024- yilning III choragida biznesga ishonch muhitini baholash, yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli, % da



* Faqat raqobat muhitiga tegishli